

Respublika OAK jurnali

ISSN 2181-4201

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY-METODIK JURNALI



IYUL 2026, 4-SON

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
<https://etjournal.buxdpi.uz>



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 4

BUXORO – 2026

ANTONIMLAR VA ULARNING LINGVOPOETIK VAZIFALARI ABDURAHMON JOMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA

Tavakkal Choriyev,

filologiya fanlari nomzodi, Buxoro davlat
universiteti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası professori

ANNOTATSIYA: Maqolaning maqsadi Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlaridagi antonimlarning semantik hamda lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash va ularning badiiy matnni shakllantirishdagi o'rnini ochib berishdan iborat. Tadqiqot qiyosiy, semantik, tavsifiy va lingvopoetik tahlil usullari asosida amalga oshirildi. Natijada har ikki shoir ijodida lug'aviy va kontekstual antonimlar tazod, muqobala hamda paradoksni yaratishning muhim vositasi bo'lib xizmat qilishi, irfoniy, falsafiy, axloqiy va ijtimoiy g'oyalarni ifodalashda, shuningdek, badiiy matnning ko'p qatlamli ma'nosini shakllantirishda muhim o'rin tutishi aniqlandi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda ilk bor Jomiy va Navoiy asarlaridagi antonimlarning semantik hamda lingvopoetik xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, ularning qo'llanishidagi umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, antonim, lug'aviy antonimiya, kontekstual antonimiya, tazod, muqobala, paradoks, lingvopoetika, semantika, badiiy matn, she'riyat poetikasi.

АННОТАЦИЯ: Цель статьи заключается в выявлении семантических и лингвопоэтических особенностей антонимов в произведениях Абдурахмана Джамии и Алишера Навои, а также в определении их роли в формировании художественной структуры текста. Исследование выполнено с использованием сравнительно-сопоставительного, семантического, описательного и лингвопоэтического методов анализа. В результате установлено, что лексические и контекстуальные антонимы в творчестве обоих поэтов выступают важнейшим средством создания антитезы, противопоставления и парадокса, способствуют выражению мистико-философских, нравственных и социальных идей, а также формированию многоплановой семантики художественного текста. Научная новизна исследования заключается в том, что впервые в сравнительном аспекте проведён комплексный анализ семантических и лингвопоэтических особенностей антонимов в произведениях Абдурахмана Джамии и Алишера Навои, выявлены общие закономерности и индивидуальные особенности их функционирования в поэтическом тексте.

Ключевые слова: Абдурахман Джами, Алишер Навои, антоним, лексическая антонимия, контекстуальная антонимия, антитеза, противопоставление, парадокс, лингвопоэтика, семантика, художественный текст, поэтика.

ANNOTATION: The aim of this study is to identify the semantic and linguopoetic features of antonyms in the works of Abdurahman Jami and Alisher Navoi and to determine their role in shaping the artistic structure of poetic texts. The research employs comparative, semantic, descriptive, and linguopoetic methods of analysis. The findings demonstrate that both lexical and contextual antonyms function as essential stylistic devices in the poetry of the two authors, serving to create antithesis, contrast, and paradox, while expressing mystical, philosophical, ethical, and social ideas and contributing to the formation of multilayered meanings within the literary text. The scientific novelty of the study lies in providing, for the first time, a comprehensive comparative analysis of the semantic and linguopoetic characteristics of antonyms in the works of Abdurahman Jami and Alisher Navoi, revealing both their common patterns and the distinctive features of their use in poetic discourse.

Keywords: Abdurahman Jami, Alisher Navoi, antonym, lexical antonymy, contextual antonymy, antithesis, contrast, paradox, linguopoetics, semantics, literary text,

poetics.

Kirish. Tojik adabiyotshunosligi va tilshunosligida tazod hamda antonimiya hodisasi, asosan, ikki yo'nalishda – badiiy san'at vositasi va leksik-semantik hodisa sifatida tadqiq etilgan. Biroq Abdurahmon Jomiy asarlaridagi antonimlar tizimi hamda ularning lingvopoetik funksiyalariga bag'ishlangan maxsus tadqiqot hozirgacha amalga oshirilmagan. Mazkur masala, asosan, shoir poetikasi, uslubi va she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish doirasida yoritilgan.

A. Mirzoyev Jomiy poetikasida ma'nolar qarama-qarshiligini badiiy tafakkurni shakllantiruvchi muhim omillardan biri sifatida baholab, «jism – ruh», «dunyo – oxirat», «majoziy ishq – haqiqiy ishq» kabi tazodlarni uning g'azaliyotining asosiy g'oyaviy tayanchlaridan deb hisoblaydi [17]. R. Hodizoda esa tazodning oshiq va ma'shuqaning qarama-qarshi ruhiy holatlarini, visol va hijron, umid va noumidlik, shodlik va g'am kabi tushunchalarni badiiy ifodalashdagi o'rnini alohida ta'kidlaydi [24]. T. Zehniy tazodni ma'naviy san'atlarning muhim turlaridan biri sifatida baholab, uning tashbeh, istiora va tajnis bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi [10]. A. Sattorzoda esa tazodning falsafiy-irfoniy mohiyatini borliq va yo'qlik, fano va baqo, zohir va botin singari qarama-qarshi tushunchalarning poetik uyg'unligida izohlaydi [22]. Demak, tojik olimlari tazodni, asosan, badiiy-estetik, falsafiy va uslubiy hodisa sifatida talqin qilgan bo'lsalar-da, Jomiy asarlaridagi antonimlar tizimi hamda ularning lingvopoetik funksiyalari hozirgacha mustaqil tadqiqot obyekti sifatida kompleks o'rganilmagan.

O'zbek tilshunosligida antonimiya masalasi ancha keng va tizimli tadqiq etilgan. Jumladan, B. Isabekov o'zbek tilidagi antonimlarning tabiati, tasnifi va struktur xususiyatlarini yoritgan [11]. R. Shukurov antonimlarning leksik-semantik tabiatini tahlil qilgan [25], D. Abdullayeva esa antisemiya hodisasi hamda uning antonimiya bilan o'zaro munosabatini, shunindek, «Tarixi muluki Ajam» hamda «Tarixi anbiyo va hukamo» asarlaridagi antonimlarni tahlil qilgan [1]. A. Karimov «Farhod va Shirin» dostoni tilining leksik va uslubiy xususiyatlarini o'rgangan [15]. H. Mamadov Navoiy badiiy nasrini [16], I. Nasirov «Majolis un-nafois» asari leksikasini [19], Z. Hamidov esa «Lison ut-tayr» dostonining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etgan [23]. B. Bafoyevning monografiyasida ham Navoiy asarlari leksikasining umumiy tavsifi doirasida semantik munosabatlar, jumladan, antonimiya hodisasi tahlil qilingan [9].

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirga qadar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlaridagi antonimlarning semantik xususiyatlari hamda lingvopoetik funksiyalarini qiyosiy aspektda yoritishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot mavjud emas. Shu bois mazkur masalani qiyosiy-tipologik asosda o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslik va lingvopoetika, balki klassik turkiy hamda fors-tojik adabiy merosining mushtarak poetik xususiyatlarini aniqlash nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur holat tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

Asosiy qism. Antonimlar, ya'ni zid ma'noli birliklar, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida badiiy ma'no, uslubiy tizim hamda poetik obrazlarni shakllantiruvchi muhim lingvistik vositalardan biridir. Ular tazod yaratish, muallif g'oyasini ta'kidlash, murakkab ruhiy kechinmalarni ifodalash, ezgulik va yovuzlik, ishq va hijron, hayot va mamot, ma'rifat va jaholat kabi falsafiy hamda axloqiy tushunchalarni badiiy talqin etishda muhim funksiyani bajaradi. Har ikki shoir ijodida antonimlik faqat lug'aviy zidlik bilan cheklanmaydi. Ko'plab hollarda antonimik munosabat bayt, g'azal yoki butun matn doirasida shakllanib, kontekstual va lingvopoetik xarakter kasb etadi. Shu sababli Jomiy va Navoiy poetikasini tahlil qilishda lug'aviy antonimlar bilan kontekstual antonimlarni farqlash alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Lug'aviy antonimlarga kecha – kunduz, do'st – dushman, yaxshi – yomon, hayot – mamot, baland – past, oshkor – pinhon kabi juftliklar kiradi. Ularning qarama-qarshiligi

matndan tashqarida ham mavjud bo'lib, til tizimida mustahkamlangan. Kontekstual antonimlarda esa ziddiyat matnning semantik tuzilishi va shoirning ijodiy tanlovi asosida yuzaga keladi. Masalan, aql va ishq umumtil nuqtai nazaridan bevosita antonim hisoblanmaydi. Biroq tasavvufiy she'riyatda ular bilishning ikki xil yo'li, ba'zan esa bir-biriga qarama-qarshi ma'rifiy konsepsiyalar sifatida talqin etiladi. Bu yerda aql mantiq, ehtiyotkorlik, me'yor va idrokning chegaralanganligini anglatadi, ishq jasorat, fano, ruhiy kashfiyot va ilohiy ma'rifat ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, zohid – oshiq, masjid – mayxona, shoh – darvesh, hush – mastlik, toj – faqr, nom – benomlik, orom – junun kabi juftliklar ham tasavvufiy she'riyatning semantik makonida antonimik munosabat hosil qiladi. Bunday qarama-qarshilik lug'aviy ma'nodan emas, balki ushbu tushunchalarning ramziy, axloqiy va irfoniy mazmunidan kelib chiqadi.

Jomiy asarlarida kontekstual antonimlar, avvalo, tasavvuf falsafasini, aql va ishq munosabatini, zohir va botin, surat va ma'no, vahdat va kasrat kabi qarama-qarshi tushunchalarni badiiy talqin etishga xizmat qiladi. Shoir tushunchalarni o'zaro qarama-qarshi qo'yish orqali o'quvchini matnning ichki qatlamlari va yashirin ma'nolarini anglashga yo'naltiradi.

Aql – ishq. Jomiy poetikasida aql va ishq ko'pincha ma'rifatga eltuvchi ikki xil yo'l sifatida qarama-qarshi qo'yiladi. Aql insonni mulohaza, me'yor va mantiqiy mushohadaga chorlasa, ishq hisob-kitob va chegaralarni buzib, insonni fidoyilik, o'zlikdan kechish va botiniy kamolot sari yetaklaydi. Shu bois mazkur juftlikda aql cheklovchi va tahlil qiluvchi kuchni, ishq esa ozod qiluvchi, o'zgartiruvchi va komillikka yetaklovchi ruhiy qudratni ifodalaydi. Demak, aql – ishq lug'aviy emas, balki kontekstual va konseptual antonim bo'lib, ularning qarama-qarshiligi Jomiy irfoniy dunyoqarashining asosiy poetik tayanchlaridan birini tashkil etadi.

Zohir – botin. Mazkur so'zlar juftligi ham lug'aviy, ham chuqur falsafiy mazmunga ega antonimik birlikdir. Jomiy asarlarida zohir ko'proq tashqi ko'rinish, rasm-rusum, zohiriy ibodat va voqelikning tashqi qatlamini anglatadi, botin haqiqiy ma'rifat, qalb pokligi, ruhiy sirlar va borliqning ichki mohiyatini ifodalaydi. Ushbu antonimik qarama-qarshilik bir necha muhim lingvopoetik vazifani bajaradi: zohirparastlikni tanqid qilish, botiniy ma'rifat ustuvorligini ta'kidlash, shakl va mazmun o'rtasidagi tafovutni ochib berish hamda baytning ramziy-irfoniy mazmunini chuqurlashtirish. Jomiy tashqi jihatdan bezatilgan ko'rinish botin pok bo'lmasligi, aksincha, oddiy va kamtarona qiyofa yuksak ma'naviy mohiyatni mujassam etishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu tariqa zohir – botin tazodi nafaqat poetik kontrastni, balki axloqiy va ma'rifiy baholash mezonini ham shakllantiradi.

Hush – mastlik. Umumxalq tilida hush va mastlik o'zaro qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydi: hush ong va idrokning ravshan holatini, mastlik esa uni yo'qotish holatini anglatadi. Biroq Jomiy tasavvufiy she'riyatida ushbu munosabat yangi aksiologik mazmun kasb etadi. Bunday kontekstda zohiriy hush ma'naviy g'aflat ramziga aylanishi mumkin, ishq mastligi esa botiniy uyg'onish va haqiqiy ma'rifat belgisi sifatida talqin qilinadi. Natijada antonimik qarama-qarshilik poetik paradoks bilan uyg'unlashadi: mast uyg'oq, hushyor esa g'ofil bo'lib qoladi. Mazkur semantik transformatsiya o'quvchini so'zlarning an'anaviy qiymatini qayta baholashga undaydi.

Faqr – shohlik. Ushbu so'zlar lug'aviy jihatdan bevosita antonimlar hisoblanmaydi. Ammo tasavvufiy tafakkurda ular qarama-qarshi aksiologik tizimlarni ifodalaydi. Jomiy ijodida faqr dunyoviy boylik va mansabdan ozodlik, Allohga ehtiyojmandlik, qalb pokligi hamda ma'naviy mustaqillik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Shohlik esa dunyoga bog'liqlik, hokimiyat, toj-u taxt va nafsoniy g'ururning timsoliga aylanadi. Shu bois tasavvufiy qadriyatlar tizimida darvesh ma'naviy jihatdan haqiqiy shoh maqomiga ko'tariladi, dunyo shohi esa mol-dunyo va mansabning asiriga aylanishi mumkin. Bunday qarama-qarshilik qadriyatlar iyerarxiyasining poetik almashinuvi sifatida namoyon bo'ladi.

Visol – firoq. Mazkur so'zlar klassik she'riyatdagi eng faol lug'aviy antonimik

juftliklardan biridir. Jomiy esa ularning mazmunini real voqelik doirasidan irfoniy-falsafiy talqin darajasiga olib chiqadi. Firoq faqat yorning hijroni emas, balki ishqning kamol topishiga sabab, oshiqning o'zligini anglash vositasi, ruhiy poklanish bosqichi va chuqur ma'rifatga eltuvchi yo'l sifatida tasvirlanadi. Visol esa shunchaki uchrashuv yoki osoyishtalik emas, balki oshiq “men”ining mahbub vujudida erishi va ma'naviy birlikka erishish ramzidir. Shunday qilib, Jomiy ushbu antonimik juftlik orqali ishqiy ziddiyatni borliq va komillik haqidagi falsafiy konsepsiya darajasiga ko'taradi.

Navoiy fors-tojik mumtoz adabiyoti an'analarini ijodiy davom ettirib, chig'atoy turkiy tilining poetik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda semantik, obrazli va uslubiy tazodlarning yangi namunalarini yaratdi. Uning asarlarida kontekstual antonimlar nafaqat irfoniy, balki ijtimoiy-axloqiy mazmunni ham ifodalaydi.

Oshiq – zohid. Ushbu so'zlar lug'aviy jihatdan bevosita antonim emas. Biroq Navoiy ularni ikki xil dunyoqarash va hayotiy pozitsiyaning timsollari sifatida qarama-qarshi qo'yadi. Oshiq samimiyat, fidoyilik, dardmandlik, qalb pokligi va sadoqat ramzi bo'lsa, ayniqsa riyozohid zohirparastlik, riyokorlik, manfaatparastlik va amalsiz da'volarning timsoli sifatida talqin qilinadi. Albatta, Navoiy barcha zohidlarni salbiy obraz sifatida tasvirlamaydi. Ammo riyokor zohid obrazini oshiq bilan qarama-qarshi qo'ygan hollarda ushbu antonimik munosabat kuchli axloqiy va aksiologik mazmun kasb etadi.

Mayxona – masjid. Mayxona va masjid lug'aviy ma'noda ikki xil makonni anglatadi va bevosita antonimlar hisoblanmaydi. Ammo Navoiy irfoniy poetikasida ular insonning ikki xil ma'naviy holati va haqiqatni anglashning ikki xil usulini ifodalovchi ramzlarga aylanadi. Masjid ba'zan rasmiy ibodat, tashqi marosim va zohirparastlikni anglatga, mayxona riyodan xoli samimiyat, ilohiy ishq, nafsoniyatni yengish va ruhiy vajd timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Shoirning maqsadi masjid yoki ibodatni inkor etish emas, balki samimiyat va riyo, mazmun va shakl, botiniy ma'rifat va zohiriy taqvo o'rtasidagi ziddiyatni badiiy ochib berishdir.

Xirad – junun. Navoiy poetikasida junun faqat telbalik emas, balki ilohiy ishq yo'lida o'zlikdan kechish va ma'naviy yuksalish holatini ifodalaydi. Shu sababli oddiy xirad oshiqni ehtiyotkorlikka undab, uning ruhiy parvozini cheklaydi, junun esa fidoyilik, o'zlikni unutish va komillik sari yetaklaydi. Natijada junun ijobiy aksiologik qiymatga ega bo'lib, hisob-kitobga asoslangan xirad nisbatan cheklovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Aynan mana shu qadriy transformatsiya Navoiy lingvopoetikasining muhim belgilaridan biridir.

Gado – shoh. Navoiy gado va shoh tushunchalarini ham ijtimoiy, ham ma'naviy qatlamlarda qarama-qarshi qo'yadi. Mahbub huzurida shoh gadoga aylanishi mumkin, ishq gadosi esa yuksak ma'naviy boylik egasi sifatida tasvirlanadi. Mazkur antonimik qarama-qarshilik bir necha lingvopoetik vazifani bajaradi: ijtimoiy maqomlarning nisbiyligini ko'rsatadi, ishq oldida barcha insonlarning tengligini ta'kidlaydi, mansab va g'ururni tanqid qiladi hamda ma'naviy boylikni dunyoviy hokimiyatdan ustun qo'yadi.

Dard – davo. Umumxalq tilida dard va davo o'zaro zid tushunchalar sifatida qabul qilinadi. Navoiy she'riyatida esa ishqning o'zi dard bo'lish bilan birga, ruhning eng buyuk davosiga ham aylanadi. Ushbu poetik tizimda jismoniy dard azob-uqubatni anglatga, ishq dardi insonni poklovchi va ma'naviy kamolotga eltuvchi ne'mat sifatida talqin qilinadi. Natijada dard leksemasi bir vaqtning o'zida ikki xil aksiologik mazmunni – izzitirob va ma'naviy saodatni ifodalaydi. Bunday semantik ko'pqatlamlilik tazod, ihom va poetik paradoksning o'zaro uyg'unlashuvi asosida yuzaga keladi.

Har ikki shoirning badiiy mahorati shunda namoyon bo'ladiki, ular lug'aviy jihatdan antonim bo'lmagan birliklarni poetik kontekstda qarama-qarshi tushunchalarga aylantira olgan. Bunday kontekstual antonimik juftliklarga aql – ishq, zohid – oshiq, masjid – mayxona, shoh – darvesh, hush – mastlik, nom – benomlik, orom – junun, toj – faqr kabilar kiradi. Umumxalq tilida hush, aql, shohlik, nom va boylik ijobiy aksiologik qiymatga ega bo'lsa, tasavvufiy matnda ular cheklanganlik, kibr, nafsoniyat va dunyoga bog'liqlik ramziga

aylanishi mumkin. Aksincha, mastlik, faqr, junun va benomlik kabi birliklar umumiy tilda ko'proq salbiy ma'noda qo'llansa-da, irfoniylar she'riyatda yuksak ma'naviy kamolot, ilohiy ishq va ruhiy ozodlikni ifodalovchi ijobiy tushunchalar sifatida talqin etiladi. Tilshunoslikda bunday hodisa aksiologik qutblanishning o'zgarishi yoki semantik-aksiologik inversiya deb izohlanadi. Bunda leksema poetik matnda o'zining odatiy bahoviy qiymatini o'zgartirib, yangi ramziy mazmun kasb etadi.

Jomiy va Navoiy poetikasida paradoksal antonimik konstruksiyalar ham muhim o'rin tutadi. Jumladan, mastlik – haqiqiy hushyorlik, faqr – chin boylik, ishq yo'lidagi o'lim – abadiy hayotning boshlanishi, dard – davo, benomlik – mangulik shuhrati, ishq asirligi – ruh erkinligi kabi qarama-qarshiliklar badiiy matnning semantik qatlamlarini chuqurlashtiradi. Bunday poetik paradokslar o'quvchini matnning zohiriy ma'nosidan ramziy va irfoniylar talqinga yo'naltirib, uning ko'p qatlamli mazmunini ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, umid – noumidlik, visol – firoq, kulgu – yig'i, sabr – betoqatlik, shodlik – g'am kabi antonimik juftliklar lirik qahramon ruhiy kechinmalarining dinamikasini ifodalashda faol qo'llanadi. Oshiq bir vaqtning o'zida ham shod, ham g'amgin bo'lishi mumkin: ishq tufayli baxtiyor, hijron sabab iztirob chekadi. Bu holat mantiqiy ziddiyat emas, balki inson ruhiyatining murakkabligi va hissiy tajribasining ko'p qirraliligini aks ettiradi.

Jomiy asarlarida kontekstual antonimlar, asosan, falsafiy, irfoniylar va ma'rifiy g'oyalarni ifodalashga xizmat qiladi. Uning poetikasida vahdat – kasrat, surat – ma'no, aql – ishq, zohir – botin, fano – baqo, huzur – g'aybat kabi antonimik qarama-qarshiliklar markaziy o'rin egallaydi. Ushbu juftliklar tasavvufning asosiy konseptlarini badiiy jihatdan talqin etib, matnning ramziy va falsafiy mazmunini boyitadi.

Navoiy esa irfoniylar mazmun bilan bir qatorda ijtimoiy va axloqiy masalalarga ham alohida e'tibor qaratadi. Shu bois uning asarlarida shoh – gado, odil – zolim, vafo – jafo, karam – baxillik, rostgo'ylik – riyo, ahl-i dard – ahl-i da'vo kabi antonimik qarama-qarshiliklar muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur juftliklar orqali shoir jamiyatdagi axloqiy mezonlar, ijtimoiy adolat va insoniy fazilatlarni badiiy baholaydi.

Semantik doirasi va matndagi funksiyasiga ko'ra Jomiy hamda Navoiy asarlaridagi antonimlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Tabiiy va kosmik antonimlar. Ushbu guruhga kecha – kunduz, yer – osmon, nur – zulmat, issiq – sovuq, bahor – xazon kabi juftliklar kiradi. Ular tabiat manzaralarini tasvirlash, vaqtning almashinuvi hamda ruhiy holatlarni ramziy ifodalash vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy antonimlar. Shoh – gado, boy – kambag'al, hokim – mazlum, odil – zolim kabi juftliklar jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish va insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Bu turdagi antonimlar ayniqsa Navoiy ijodining axloqiy-ijtimoiy qatlamida faol uchraydi.

Axloqiy antonimlar. Xayr – shar, rostgo'ylik – yolg'on, vafo – jafo, karam – baxillik, do'st – dushman kabi antonimlar inson shaxsi, fe'l-atvori va axloqiy qadriyatlarini baholash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Irfoniylar va falsafiy antonimlar. Zohir – botin, fano – baqo, aql – ishq, surat – ma'no, vahdat – kasrat, hush – mastlik kabi juftliklar tasavvufiy dunyoqarashning asosiy konseptlarini ifodalovchi markaziy antonimik birliklar hisoblanadi.

Ishqiy va emotsional antonimlar. Visol – hijron, shodlik – g'am, umid – noumidlik, kulgu – yig'i, sabr – betoqatlik, orom – iztirob kabi juftliklar lirik qahramonning ruhiy kechinmalari va hissiy holatlarining o'zgaruvchanligini aks ettiradi.

Fazoviy va miqdoriy antonimlar. Yuqori – quyi, uzoq – yaqin, ichkari – tashqari, kam – ko'p, keng – tor kabi antonimlar poetik tasvirni shakllantirish, mantiqiy qiyoslash va badiiy ta'kidni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Jomiy va Navoiy asarlarida faol qo'llanilgan mushtarak antonimlar		
Antonim	Asosiy	Lingvopoetik vazifasi

	ma'nosi	
kecha – kunduz	qorong'ilik – yorug'lik	vaqt o'tishini, hijronni, umid va yangilanishni ifodalash
kecha – sahar	tun – tong	hijron va visol yaqinlashuvining ramzi
hayot – o'lim (mamot)	yashash – vafot	irfoniy va falsafiy g'oyalarni ifodalash
do'st – dushman	muhabbat – adovat	insoniy va ijtimoiy munosabatlarni tasvirlash
xayr – shar	ezgulik – yovuzlik	inson va uning amallarini axloqiy baholash
nur – zulmat	yorug'lik – qorong'ilik	ma'rifat va jaholat ramzi
visol – hijron	diydor – ayriliq	ishqiy g'azaliyotning asosiy g'oyasini ifodalash
shodlik – g'am	quvonch – qayg'u	oshiqning ichki ruhiy holatini tasvirlash
yoshlik – qarilik	navqironlik – keksalik	umrning o'tkinchiligi va dunyoning foniyligini ta'kidlash
shoh – gado	hokimiyat – faqirlik	ijtimoiy tanqid va ma'naviy qadriyatlarning almashuvini ifodalash
baland – past	yuqori – quyi	martaba, maqom va baholashni ifodalash
issiq – sovuq	harorat – sovuqlik	hissiyotning kuchi yoki sustligini tasvirlash
kam – ko'p	oz – ko'p	qiyoslash, ta'kidlash va mubolag'ani kuchaytirish
oshkor – pinhon	ayon – yashirin	irfoniy sir va botiniy ma'nolarni ifodalash
ichkari – tashqari	botin – zohir	tasavvufiy dunyoqarashni yoritish
osmon – yer	yuqori – quyi	ulug'lik, masofa va martabani ifodalash
to'g'ri – egri	haq – nohaq	axloqiy va ijtimoiy baholash
oq – qora	yorug' – qorong'i	poklik, gunoh, ezgulik va yovuzlik ramzi
kulgu – yig'i	quvonch – iztirob	lirik qahramon hissiyotlaridagi qarama-qarshilikni ifodalash
vafo – jafo	sadoqat – sitam	oshiq va ma'shuqa munosabatlarini tasvirlash
sabr – betoqatlik	chidam – beqarorlik	ruhiy zo'riqish va hissiy keskinlikni ko'rsatish
fano – baqo	yo'qlik – abadiy mavjudlik	irfoniy kamolot bosqichlarini ifodalash
surat – ma'no	shakl – mohiyat	zohir va haqiqatning qarama-qarshiligini ochib berish
adolat – zulm	odillik – sitam	ijtimoiy tanqid va adolat g'oyasini ta'kidlash

Antonimlar Jomiy va Navoiy asarlarida quyidagi lingvostilistik vazifalarni bajaradi:
Tazod san'atini shakllantirish. Qarama-qarshi tushuncha yoki obrazlar bir poetik

tuzilma doirasida qo'llanib, bir-birining ma'nosini yanada ravshanlashtiradi.

Muqobala san'atini hosil qilish. Oddiy tazoddan farqli ravishda, muqobalada bir necha qarama-qarshi tushuncha, belgi yoki holat bayt yoki matnning ikki qismida o'zaro qarama-qarshi qo'yiladi.

Badiiy ta'sirchanlikni kuchaytirish. Qarama-qarshilik o'quvchi e'tiborini asarning asosiy g'oyasi va poetik markaziga yo'naltiradi.

G'oyani ta'kidlash. Axloqiy, ijtimoiy yoki irfoniy fikr antonimik qarama-qarshilik orqali yanada ta'sirchan ifodalanadi.

Ruhiy holatni ifodalash. Antonimlar lirik qahramon kechinmalarining murakkabligi va o'zgaruvchanligini ochib beradi.

Ritm va parallelizmni shakllantirish. Zid ma'noli juftliklar baytning sintaktik tuzilishi, ohangi va mutanosibligini ta'minlaydi.

Poetik paradoks yaratish. Tashqi jihatdan bir-biriga zid tushunchalarning uyg'unlashuvi yangi va kutilmagan poetik ma'nolarni yuzaga keltiradi.

Matnning ichki yaxlitligini ta'minlash. Antonimik juftliklarning g'azal davomida takrorlanishi va rivojlanishi matnning semantik birligini mustahkamlaydi.

Jomiy va Navoiy ijodida antonimlar faqat lug'aviy qarama-qarshilikni ifodalovchi vosita emas. Ular poetik obrazlar tizimi va muallif konsepsiyasini shakllantiruvchi muhim lingvopoetik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ularning asosiy lingvopoetik xususiyatlari quyidagilardan iborat: badiiy obraz yaratish vositasi bo'lishi; ramziy, irfoniy va falsafiy ma'nolarni ifodalashi; istiora, tashbeh, kinoya, talmeh, ihom va tanosub kabi poetik vositalar bilan uyg'unlashishi; leksemalarning semantik va aksiologik qiymatini o'zgartirishi; baytning ko'p qatlamli semantik tuzilishini shakllantirishi; matnning ohangdorligi, mutanosibligi va musiqiylikni kuchaytirishi; nutqning emotsional-estetik ta'sirini oshirishi hamda shoir dunyoqarashining asosiy konseptlarini ifodalashga xizmat qilishi.

Quyida Jomiy va Navoiy asarlaridagi ayrim antonimlarning lingvopoetik xususiyatlari ilmiy tahlil asosida yoritiladi.

Jomiy ijodida:

Kosh, vayron bo'lsa **fano** selidan xonamiz,

To **baqo** ganji ko'chib kelsa vayronamizga [4, 30].

Mazkur baytda asosiy antonimik juftlik **fano** – **baqo** hisoblanadi. Ular lug'aviy antonimlar bo'lib, tasavvuf va fors-tojik mumtoz adabiyotining eng muhim falsafiy tushunchalaridan sanaladi. Shu bilan birga, xona – vayrona juftligi ham kontekstual antonimik munosabat hosil qiladi.

Baytning semantik markazi fano va baqo tushunchalarining qarama-qarshiligiga qurilgan. Lug'aviy jihatdan fano yo'q bo'lish, barham topish va o'zlikdan voz kechishni, baqo esa abadiy mavjudlik, boqiylik va ilohiy davomiylikni anglatadi. Tasavvuf falsafasida ushbu tushunchalar ruhiy kamolotning ketma-ket bosqichlarini ifodalaydi: inson avvalo nafs, o'zlik va dunyoviy bog'liqlikdan fano topishi, shundan keyingina ilohiy haqiqat va vasl orqali baqo maqomiga yetishi mumkin.

Baytda antonimlar nafaqat semantik qarama-qarshilikni, balki ma'naviy harakatni ham ifodalaydi. Shoir “xonamiz”ning fano seli ta'sirida vayron bo'lishini tilaydi, chunki zohiriy mavjudlik yo'qolmaguncha baqo ganji unga joylashmaydi. Demak, fano – baqo qarama-qarshiligi sabab va natija munosabatiga aylanadi: fano baqoning zarur sharti sifatida talqin qilinadi.

Lingvopoetik nuqtai nazardan xona – vayrona juftligi ham ramziy mazmun kasb etadi. Zohiriy ma'noda ular bir makonning ikki xil holatini bildirsa, tasavvufiy talqinda xona insonning nafsoniy mavjudligi va “men”ini, vayrona esa qalbning kibr va o'zlikdan poklanib, ilohiy fayzni qabul qilishga tayyor holatini ifodalaydi. Shu bois ushbu baytda vayrona salbiy tushuncha emas, balki ruhiy kamolot ramzi sifatida qo'llangan.

Kognitiv-semantik nuqtai nazardan bayt quyidagi konseptual model asosida qurilgan:

o'zlik → fano → poklanish → baqo → ma'naviy kamolot

Mazkur konseptual zanjir Jomiy irfoniylar dunyoqarashining asosiy tamoyillarini aks ettiradi hamda insonning haqiqiy mavjudlikka erishishi o'z nafsini va “men”dan voz kechish orqali amalga oshirishini badiiy-falsafiy jihatdan ifodalaydi.

Baytda **fano** – **baqo** antonimik juftligi semantik va lingvopoetik tuzilmaning asosiy o'qini tashkil etadi. Ushbu antonimlar nafaqat lug'aviy qarama-qarshilikni ifodalaydi, balki tasavvufning eng muhim konsepsiyalaridan biri – nafsoniy mavjudlikdan voz kechish orqali boqiy ma'naviy hayotga erishish g'oyasini badiiy jihatdan mujassamlashtiradi. Xona – vayrona juftligi esa ushbu konsepsiyani obrazli darajada kuchaytirib, zohiriy “men” yemirilgandagina qalb ilohiy baqo ganjini qabul qilishga qodir bo'lishini anglatadi. Demak, baytdagi antonimlarning asosiy lingvopoetik vazifasi falsafiy tazod yaratish, irfoniylar kamolotning dinamikasini ifodalash hamda matnning estetik ta'sirchanligini kuchaytirishdan iborat.

Quyidagi baytda ham antonimlar oddiy lug'aviy qarama-qarshilik emas, balki badiiy va irfoniylar mazmunini shakllantiruvchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy ijodida:

Zi g'ayri xesh rihon lutf qilib Foniyni,
Nasib et tariqi **fano**, ki ayni **baqost** [8, 208].

Mazkur baytda asosiy antonimik qarama-qarshilik **fano** – **baqo** juftligi asosida yuzaga kelgan. Ushbu juftlik fors-tojik va turkiylar mumtoz adabiyot hamda tasavvuf tafakkurining eng muhim irfoniylar antonimlaridan biri hisoblanadi. Fano va baqo bir vaqtning o'zida ham lug'aviy, ham terminologik-irfoniylar antonimlardir. Fano inson “men”ining yo'qolishi, nafsdan xalos bo'lish va dunyoviy bog'liqliklardan voz kechishni anglatadi, baqo ilohiy haqiqat bilan vasl topish, abadiylar ma'naviy mavjudlik va boqiy hayotni ifodalaydi. Mantiqiy jihatdan bu ikki tushuncha bir-biriga zid (yo'qlik ↔ boqiy mavjudlik) bo'lsa-da, tasavvuf tafakkurida ular yagona ma'naviy jarayonning uzviy bosqichlari sifatida talqin etiladi. Baytdagi «tariqi fano, ki ayni baqost» ifodasi irfoniylar paradoksining yorqin namunasi. Shoirning fikricha, inson aynan fano yo'lidan o'tish orqaligina haqiqiy baqo maqomiga erisha oladi. Demak, antonimik qarama-qarshilik poetik tafakkurda ichki birlikka aylantiriladi.

Mazkur baytda **fano** – **baqo** antonimiyasining lingvopoetik funksiyalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

falsafiy tazod yaratish orqali yo'qlik va boqiy mavjudlikni qarama-qarshi qo'yish;
tasavvufning markaziy g'oyasini ifodalash, ya'ni fano mavjudlikning yakuni emas, balki haqiqiy baqoning boshlanishi ekanligini ko'rsatish;

ma'naviy kamolot konsepsiyasini ochib berish: shoir Allohdan uni barcha dunyoviy bog'liqliklardan xalos etib, fano yo'lga boshlashni so'raydi, chunki aynan shu yo'l baqo sari eltadi;

poetik ta'sirchanlikni kuchaytirish: tashqi jihatdan zid bo'lgan ikki tushunchaning uyg'unlashuvi baytning falsafiy va estetik mazmunini chuqurlashtiradi.

Shunday qilib, ushbu baytda fano – baqo lug'aviy antonim bo'lsa-da, lingvopoetik nuqtai nazardan ular faqat tazod yaratish vositasi emas. Navoiy mazkur antonimik juftlik orqali tasavvufning eng muhim konsepsiyalaridan birini – fano haqiqiy baqoga eltuvchi yagona yo'l ekanligini badiiy-falsafiy asosda ifodalaydi. Natijada antonimiya falsafiy, irfoniylar va estetik funksiyalarni birgalikda bajarib, matnning semantik ko'pqatlamligini ta'minlaydi.

Fano xonaqohi aro somit o'lg'il,

Yo'q ulkim **baqo** dargohida bohis [5, 78].

Mazkur baytda ham asosiy antonimik qarama-qarshilik **fano** ↔ **baqo** juftligi asosida qurilgan. Ushbu leksemalar tasavvufning eng muhim konseptlari bo'lib, nafaqat lug'aviy, balki terminologik-irfoniylar antonimlar sifatida ham namoyon bo'ladi.

Birinchi misrada shoir: «Fano xonaqohida sokin va xomush bo'l», deya murojaat

qiladi. Bu yerda fano nafsni yengish, o'zlikdan voz kechish va ruhiy kamolot sari intilish ma'nosini anglatadi. Xonaqohi fano birikmasi esa muridning ma'naviy tarbiya maktabi, ya'ni inson “men”idan voz kechadigan ruhiy kamolot maskani ramzi sifatida qo'llangan.

Ikkinchi misrada: «Baqa dargohida bahs va da'vo qiluvchi bo'lma», degan fikr ilgari suriladi. Bu yerda baqa ilohiy haqiqat bilan vasl topish, ruhiy boqiylik va komillik maqomini ifodalaydi. Demak, fano va baqa bir-biriga zid bo'lgan ikki bosqichni tashkil etadi:

fano – nafsni yo'qotish, o'zlikdan voz kechish;

baqa – haqiqiy mavjudlik va ilohiy vaslga erishish.

Lingvopoetik jihatdan Navoiy ushbu qarama-qarshilikni ikki ramziy makon orqali yanada kuchaytiradi: xonaqohi fano – nafsni tarbiyalash va sukut makoni; dargohi baqa – ma'rifat va ilohiy qurb maqomi. Ushbu obrazlar fano bosqichidan o'tmasdan turib baqa maqomiga erishish mumkin emasligini badiiy jihatdan asoslaydi.

Bundan tashqari, somit (sukut saqllovchi) va bohis (bahslashuvchi, da'vogar) leksemalari ham kontekstual antonimik munosabat hosil qiladi. Somit tavoze, taslim va irfoniy kamtarlik ramzi bo'lsa, bohis nafsoniy da'vo va kibru g'ururning ifodasi sifatida talqin etiladi. Shu tariqa antonimik qarama-qarshilik faqat leksik emas, balki axloqiy va ruhiy mazmunni ham qamrab oladi.

Demak, ushbu baytda fano ↔ baqa antonimiyasi semantik va lingvopoetik tizimning markaziy o'qini tashkil etadi. Navoiy mazkur qarama-qarshilik orqali tasavvuf ta'limotining asosiy tamoyilini – solik avvalo fano maqomini bosib o'tib, shundan keyingina baqa dargohiga yetishi mumkin degan g'oyani badiiy ifodalaydi. Natijada antonimlar nafaqat qarama-qarshilik vositasi, balki falsafiy, ramziy, tarbiyaviy va estetik funksiyalarni bajaruvchi poetik birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Jomiy ijodida:

Ba xanjari sitamu javr sinamam mashikof,

Chu lola dog'i **nihoni** man **oshkor** makun! [4, 169].

Mazkur baytning semantik markazida **nihon** – **oshkor** antonimik juftligi turadi. Ushbu birliklar lug'aviy antonimlar hisoblanadi, chunki ular matndan tashqarida ham o'zaro zid ma'nolarni anglatadi: nihon – yashirin, maxfiy; oshkor – ayon, ko'rinadigan. Shoir ma'shuqadan sitam va jafo xanjarini uning ko'ksiga sanchmaslikni iltijo qiladi, chunki bunday bo'lsa, qalbidagi yashirin ishq dog'i oshkor bo'lib qoladi. Baytdagi xanjar real qurol ma'nosidan tashqari shafqatsizlik, ozor va ma'shuqaning bevafoqligi ramzi sifatida qo'llangan. Ko'ksini yorish obrazi ham ramziy xarakterga ega bo'lib, oshiqning ichki siri va yashirin kechinmalarining fosh bo'lishini anglatadi.

Nihon – **oshkor** antonimiyasining lingvopoetik funksiyasi bir necha muhim poetik vazifani bajaradi.

Birinchidan, u tazod hosil qiladi. Ishq dardining yashirin holati bilan uning oshkor bo'lishi o'rtasidagi qarama-qarshilik lirik kechinmaning emotsional kuchini oshiradi.

Ikkinchidan, antonimlar botiniy sir konseptini ifodalaydi. Baytdagi dog'i nihon oddiy qalb jarohati emas, balki pinhoni ishq, ichki iztirob va ruhiy kechinmalarining ramziy ifodasidir.

Uchinchidan, ular poetik obrazni kuchaytiradi. «Chu lola» tashbehi mumtoz adabiyotda chuqur ramziy mazmunga ega. Lola gulining markazidagi qora dog' qonli qalb, hijron va kuydiruvchi ishq timsoli sifatida talqin qilinadi. Demak, ko'ksi yorilganda oshiqning ichki dardi lola dog'i kabi ko'zga tashlanadi.

To'rtinchidan, antonimik qarama-qarshilik dramatik ta'sirni kuchaytiradi. Buyruq-istak shaklidagi «oshkor makun» iborasi oddiy iltimos emas, balki iztirobga to'la ruhiy faryod sifatida yangraydi.

Baytda ramziy obrazlar tizimi quyidagi semantik zanjirni hosil qiladi: xanjar → sitam, ozor → ko'ks → qalb va tuyg'ular makoni → dog' → ishq jarohati → lola → qonli qalb ramzi → nihon ↔ oshkor → ichki sir ↔ uning fosh bo'lishi. Mazkur obrazlar yagona

semantik tizimni tashkil etib, oshiqning ruhiy kechinmalarini chuqur va ta'sirchan tarzda ochib beradi.

Demak, ushbu baytda nihon – oshkor antonimiyasi lingvopoetik qurilmaning markaziy elementi hisoblanadi. U faqat lug'aviy qarama-qarshilikni emas, balki xanjar, ko'ks, dog' va lola ramzlari bilan uyg'unlashgan holda oshiqning botiniy olamini badiiy ifodalashga xizmat qiladi. Natijada antonim emotsional tazod yaratish, ishq sirini ochish hamda matnning estetik ta'sirchanligini kuchaytiruvchi muhim poetik vositaga aylanadi. Mazkur bayt Jomiy lirikasida antonimlarning yuksak badiiy mahorat bilan qo'llanganining yorqin namunalaridan biridir.

Mehrat andar jonu jon dar dil, dil andar bar **nihon**,
Kardamu z-in niz mexoham, ki pinhontar buvad [4, 87].

Mazkur baytda kontekstual antonimiya nihon ↔ oshkor (ayon) qarama-qarshiligi asosida shakllangan. Garchi oshkor leksemasi matnda bevosita qo'llanmagan bo'lsa-da, uning ma'nosi nihon va pinhontar birliklari orqali tabiiy ravishda tiklanadi. Lingvopoetikada bunday hodisa implitsit antonimiya deb ataladi.

Shoir muhabbatning bosqichma-bosqich joylashuvini tasvirlaydi: jon → dil → bar (ko'ks). Tashqi nuqtai nazardan ushbu harakat ichki olamdan tashqi makonga siljishni, ya'ni oshkor bo'lish ehtimolini yuzaga keltiradi. Biroq shoir bu kutilmani buzadi va «...mexoham, ki pinhontar buvad» deya ta'kidlaydi. Natijada tashqi makon (bar) bilan yanada chuqur yashirinlik (pinhontar) o'rtasida kontekstual qarama-qarshilik hosil bo'ladi. Muhabbat butun vujudni qamrab olgan bo'lsa-da, u boshqalardan yanada ko'proq yashirilishi lozim.

Mazkur kontekstual antonimiya bir necha muhim lingvopoetik funksiyani bajaradi.

Birinchidan, u ishqning cheksiz chuqurligini ifodalaydi. Muhabbat shu darajada kuchliki, uni qalbda yashirishning o'zi ham yetarli emas; oshiq uning yanada pinhon bo'lishini istaydi.

Ikkinchidan, u ma'naviy tazod yaratadi. Bir tomondan, ishq insonning butun borlig'ini — jon, qalb va vujudini egallaydi, ikkinchi tomondan esa mutlaq maxfiy saqlanadi. Mazkur qarama-qarshilik baytning poetik ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Uchinchidan, antonimiya tasavvufiy dunyoqarashni ifodalaydi. Irfoniy adabiyotda haqiqiy muhabbat siri begonalardan yashirilishi lozim. Shu sababli pinhontar leksemasi ixlos, botiniy sir va ilohiy ishq pokligining ramziga aylanadi.

To'rtinchidan, u estetik ta'sirni kuchaytiradi. Pinhontar shaklining qiyosiy darajada qo'llanishi yashirinlikning yanada kuchayishini ifodalab, poetik obrazning emotsional ta'sirini oshiradi.

Shunday qilib, mazkur baytda Abdurahmon Jomiy implitsit kontekstual antonimiya vositasida ko'p qatlamli poetik ma'no yaratadi. Garchi antonimik juftlikning ikkinchi qismi (oshkor, ayon) matnda bevosita ifodalanmagan bo'lsa-da, u nihon va pinhontar leksemalari orqali semantik jihatdan tiklanadi. Natijada antonimiya ishqning botiniy mohiyatini, ruhiy poklikni va lirik kechinmaning chuqur psixologik tabiatini ifodalovchi muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, ushbu baytda Jomiy antonimik munosabatdan oshiqning ichki ruhiy holatini ochish, hissiy ta'sirchanlikni kuchaytirish hamda tasavvufiy muhabbat konsepsiyasini badiiy-falsafiy asosda yoritish maqsadida mahorat bilan foydalangan.

Alisher Navoiy ijodida:

Foniyo, dar xirqa pinhon doshtan aknun chi sud?
Gasht chun sad aybi **pinhon oshkoram** az sharob [6, 68].

